

**O‘zbek opera san’atining mustaqillik davrida rivojlanish bosqichlari**

**Saidov Jasur Shavkatovich**

**Buxoro Davlat Universiteti “Musiqa ijrochiligi va madaniyat” kafedrasini  
o‘qituvchisi**

**Anotatsiya:** Maqolada o‘zbek opera san’atining mustaqillik davridan bugungi kunga qadar rivojlanish bosqichlari, uzoq yillar mobaynida san’atning noyob turi hisoblangan opera san’atini Respublikamizda yanada rivojlanishi va xalqaro darajada e’tirof etilishi uchun sohada amalga oshirilayotgan oqilona islohotlar samarasini haqida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Opera, drama, teatr, spektakl, repertuar, musiqiy kompazitsiya.

**Аннотация:** В статье рассмотрены проблемы узбекского оперного искусства с периода независимости до наших дней, а также усилия, предпринимаемые в этой области для того, чтобы оперное искусство, многие годы считавшееся нехудожественным видом, получило более развитое развитие в нашей республике и признаны на международном уровне.

**Ключевые слова:** Опера, драма, театр, спектакль, репертуар, музыкальная композиция.

**Annotation:** The article deals with the problems of the Uzbek opera art from the period of independence to the present day, as well as the efforts made in this area to ensure that the opera art, which for many years was considered a non-artistic form, received a more developed development in our republic. and recognized internationally.

**Key words:** Opera, drama, theatre, performance, repertoire, musical composition.

Mustaqillik davrida milliy adabiyot, madaniyat va san’atning qaysi bir sohasi bo‘lmisin, xususan teatr san’ati ham rivoj topdi, madaniy aloqalar kengaydi. Tabiatan nozik ta’b, san’atsevar va san’at ahliga talabchan o‘zbek xalqining opera san’ati ham rivojlandi. Ma’lumki xalqimiz azaldan san’atning barcha turlarini o‘rganishga qunt qilgan. Yusak ma’naviyatli jamiyat qurish va jahon hamjamiyatiga kirib borish ko‘p jihatdan ma’naviy madaniyatning taraqqiyoti uchun o‘zbek opera san’atining rivoji alohida ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik davri o‘zbek operalarida janr talqini, mavzu va mazmun doirasi yanada kengaytirib boyitildi. Mazmunni talqin qilishda asosiy urg‘u milliy hamda umumbashariy ma’naviy qadriyatlarini tarannum etishga, murakkab vaziyat va psixologik holatlarni chuqur iroda etishga qaratildi. Ushbu davrda o‘zbek kompazitorlari opera asarlarida o‘zbek xalq musiqa merosi va milliy ijrochilik an’analarini zamonaviy ifoda va musiqiy texnik vositalar

bilan uzviy bog‘lashdi. Mustaqillik davrida ko‘plab o‘zbek kompazitorlari Rustam Abdullayev, Habibullo Rahimov, Mustafo Bafoyev, Mirxalil Maxmudovlar turli mavzularda bir qancha operalar yaratishdi. Ular yaratgan operalarda undagi eng qimmatli narsa bu maftunkor ohang, kompazitorlar tomonidan tasvirlangan personajlarning tabiiyligi, syujetning soddaligi va uyg‘unligi, jonliligidir. Bu davrga kelib opera janri turli modernizm yo‘nalishlar ta’sirida rivoj topdi. Shunga qaramay uning bosib o‘tgan yo‘li oson kechdi deb bo‘lmaydi. Opera librettosini musiqiy bezashda kompazitor boshidan oxirigacha musiqiy ijod muhitida bo‘ladi, yaxlit dramatik spektakl nuqtai nazaridan ham, uni tashkil etuvchi alohida qayta ishslash nuqtai nazaridan ham, o‘z san’atining bebaho vositalarini qo‘llaydi. Mustaqillik yillarida opera san’atiga , xususan, milliy opera spektakllarini yaratishga, uning rivojini yuksak darajaga ko‘tarishga jiddiy e’tibor berildi va bu bir qancha yangi o‘zbek milliy operalarini yaratilishiga sabab bo‘ldi. 1991-2003 yillar mobaynida Sayfi Jalilning “Malikai ayyor”, Mustafo Bafoyevning “Umar Xayyom”, “Ahmad al-Farg‘oniy”, N.Zokirovning “Taxtga yo‘l”, G.Gendelning “Amir Temur”, A.Ikromovning “Buyuk Temur” operalari sahnalashtirildi. Mustaqillik davri o‘zbek operalari janr talqini anchagina o‘zgardi, ma’no va mazmuni boyitishga, ohang go‘zallagini yaratishga e’tibor qaratildi. O‘zbek kompazitorlari opera asarlarida orkestrning cholg‘ulashtirish yo‘llarida ham, vokal lavhalarida ham o‘zbek xalq musiqa merosini chambarchas bog‘laganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Bu davrda mumtoz operalar T. Sodiqov va R. Glierning “Layli va Majnun” 1995-yil, M. Ashrafiyning “Dilorom” 2001-yil qayta ishlanib, yangicha talqinda namoyish etildi. Hozirgi zamon ijtimoiy muammolari N. Zokirovning “Muxtoriyat” operasi, O. Abdullayevning “Vafo” operasi, uzoq o‘tmish bilan bog‘liq Mustafo Bafoyevning “Buxoroyi Sharif” doston-teleoperasi, ulkan tarixiy shaxslar siymolari M. Bafoyevning “Ahmad al-Farg‘oniy”, A. Ikromovning “Buyuk Temur”, falsafiy mavzular Ikrom Akbarovning “Ibtido xatosi” opera-oratoriyasi opera janrining keying rivojini belgiladi. Bular orasida A. Ikromovning “Buyuk Temur”, M. Bafoyevning “Ahmad al-Farg‘oniy” operalari Alisher Navoiy nomidagi Davlat Akademik katta opera va balet teatrida sahnalashtirildi.

Istiqlol yillarida kompazitorlar, baletmeysterlar va telerijissorlar hamkorligida yangi-teleopera janri yuzaga keldi. M. Bafoyevning “Buxoroyi Sharif” H. Davron librettosi, 1997-yil asari shu janrda yaratilgan bo‘lib, Buxoroning 2500-yilligiga bag‘ishlangan. Mazkur asar opera-doston deb atalib, 2 doston va 22 naqshlarga bo‘lingan. Opera badiiy o‘qish, baxshi, solistlar, xor va o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun yaratilgan. Asar Buxoro va uning tarixiy obidalari, qolaversa Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Abu Ali Ibn Sino, Ro‘dakiy kabi buyuk allomalarini musiqiy ohanglar orqali madh etadi. Asar

televedeniyaga mo‘ljallangan bo‘lib, video ilm janrida namoyish etildi. Operaning bosh obrazi-baxshi bo‘lib, ma’lum musiqiy ohanglar orqali tasvirlanadi, har bir naqshni bir-biriga bog‘lab beradi va opera bir yo‘nalishda yaxlit tasavvur etiladi. Orkestr tarkibiga chang, qobuz, sato, do‘mbira va qonun kabi o‘zbek milliy cholg‘ulari kiritilgan, ayrim cholg‘ular ma’lum obrazlarga jo‘rnavoz bo‘lib ifodalangan. Masalan, operaning bosh qahramoni baxshi obrazi chang-qobuz cholg‘usining solosi jo‘rligida namoyish etilgan. Musiqali teatr ijodiyotining boshqa e’tiborli yutuqlaridan yana biri bolalar uchun yaratilgan asarlardir. Ushbu yo‘nalishda A. Ergashev, A. Mansurov, A.Ikromov va boshqa kompazitorlar samarali ijod qilmoqdalar, xususan A.Ikromovning “Olovuddinning sehirli sham-chirog‘i”, A.Mansurovning “Hayvonlar sulton” ertak operasi tinglovchilar tomonidan qizg‘in qarshi olinmoqda. Yoshlarbob qiziqarli mavzular tanlab olinayotganligi, jozibador kuy-ko‘shiqlarning yangrashi, sahna harakatlarining tabiiylici bilan tomoshabinni ishontira olganligi mazkur asarlarga katta muvoffaqiyat baxsh etmoqda. Asarda keng borliqni yaratish yo‘lidagi ajoyib imkoniyatlar A.Mansurovning “Hayvonlar sulton” ertak operasining yakuniy sahnasida ham namoyon bo‘ladi. Opera finalida yagona g‘oya va yagona tuyg‘uga ega bo‘lgan barcha qahramonlar yig‘ilishadi. Qahramonlar ichki dunyosini, mohiyatini, ularning ma’naviy holatini ochib berish juda katta masalalardan bo‘lib, uni yechishda ichki sahnaviy harakatning barcha omillarini yengillashtirish lozim. Aynan anshunday omillar A.Mansurov tanlagan g‘oyaning haqiqiy mazmunini ochib beradi. Ularning ta’sirchan harakterli qahramonlarning ohang taqqoslanishlarida o‘z ifodasini topadi. Yangrovchi kelajak va borliq nafaqat qarama-qarshi uslublar orqali balki cholg‘u tembrlari yordamida bitta obrazni ikkinchisidan ajratish orqali erishiladi.

2017-yil 28-aprel kuni O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasining katta zalida atoqli kompazitor Mirsodiq Tojiyevning “Kumush” operasi konsert ijrosidagi ilk taqdimoti bo‘lib o‘tdi. M.Tojiyevning “Kumush” lirik-fojeaviy operasi 1988-yilda Abdulla Qodiriyning (1894-1938) asari asosida yaratilgan. Opera librettosi “O’tkan kunlar” romani bo‘yicha Izzat Sulton tomonidan yozilgan. Opera ikki parda, 7 ko‘rinishdan iborat. Mazkur operani orkestrga yosh iste’dodli dirijyor Kamoliddin Azimov va O‘zbekiston san’at arbobi kompazitor Mirxalil Maxmudov taxriri ostida 2016-yilda moslashtirgan. To‘liq partiturani taylorlashda Mirsodiq Tojiyev tomonidan qo‘lyozma tarzida yozilgan opera klaviridan foydalanildi. Simfonik orkestr tarkibiga milliy cholg‘ulardan tanbur, doira, va nog‘oralarning partiyalari ham kiritilganligi alohida ahamiyatga ega. Mirsodiq Tojiyevning “Kumush” operasi konsert ijrosidagi ilk taqdimoti ijro etuvchilar yosh bo‘lsada, iste’dodli xonanda va sozandalar, konservatoriya talabalari hamda Musiqali teatr-studiya simfonik orkestri

va xori, dirijyorning hissasi muhim ahamyatga ega. Kompazitor opera janriga ko‘p murojaat etmagan bo‘lsada, uning sahnaviy asarga bo‘lgan tafakkurining naqadar kengligi va ma’nodorligini yaratgan operasining naqadar jozibadorligi ohanglar serjiloligi misolida ko‘rish mumkin. Librettodagi rechitativ kuylanadigan nomerlar bir qancha ko‘p bo‘lsada, ular asar dramaturgiyasiga xosdir. 2019-yilda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Davlat Akademik katta teatrda premyerasi bo‘lib o‘tdi. Opera Abdulla Qodiriy tavalludining 125-yilligiga bag‘ishlab homiylar “Sothis Aegis” va Shodiev xalqaro fondi ko‘magida xalq shoiri Usmon Azim tomonidan (Abdulla Qodiriyning oilasi bilan kelishilgan holda) yangi taxrirda yaratildi. Librettoni “Marinskiy” teatri rejissyori Erkin Gabitov sahnalaشتirgan. Musiqiy materialning yangi talqini muallifi Mirxalil Mahmudov. Opera orqali teatr sahnasida tomoshabinga roman qahramonlarini yangi shaklda taqdim etishga harakat qilindi. Asar mumtoz tilda yozilgan, ayrim zamonaviy detallar hamda solistlar libosida ozgina o‘zgarish bo‘lgan. Tomoshabinga o‘scha davr ruhiyatini berishga harakat qilingan. Asarning yangi talqini ustida ikki yil ish olib borildi va u san’atshunos mutaxassislar tomonidan iliq qarshi olindi.

Mamlakatimizdagi rivojlanish, buniyodkorlik, jo‘shqinlikning asosiy sababi eng avvalo, mustaqillik bergen huquq va erkinliklar hamda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan oqilona islohotlar samarasidir, shu jumladan opera sohasida ham. Uzoq yillar mobaynida san’atning noyob turi hisoblangan opera san’atini Respublikamizda yanada rivojlanishi va xalqaro darajada e’tirof etilishi uchun e’tibordan chetda qolib keldi. Mamlakatimiz Prezidentining shaxsan e’tibori va tashabbuslari bilan yurtimizda opera san’atini yanada rivojlantirish bo‘yicha 2021-yil 27-dekabrdagi PQ-64 sonli qarorlari qabul qilindi. Yangi O‘zbekistonni barpo etishda opera san’atining nufuzini oshirish, o‘zbek milliy opera san’atini jahon miqyosida targ‘ib qilish, ommalashtirish, uning noyob durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, ustoz-shogird an’analari va ijodiy maktablarni har tomonlama rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish, ushbu yo‘nalishdagi teatr tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash va ularning moddiy texnika bazasini mustahkamlash, opera san’ati vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda uning ravnaqiga munosib hissa qo‘shgan taniqli namoyondalarning hayoti va ijodiy faoliyatini targ‘ib qilish kabi xayrli va muhim yo‘nalishlar belgilab berildi. Qolaversa Mamlakatimiz rahbarining tashabbusi bilan 2020-yil sentabr oyida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahrida Opera va baxshichilik maktab-internati barpo etilib ishga tushurildi. Ma’lumki, qoraqalpoq elining o‘ziga xos baxshichilik yo‘nalishi bor. Mustaqillik yillarida bu yerda opera san’ati ham rivojlandi. Opera va baxshichilik maktab-internati ushbu an’anani davom ettirish, yosh avlodga yetkazishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

Ражабов Тухтасин Ибодович, Ибодов Укташ Расулович **ОБЕСПЕЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ В ОБУЧЕНИИ ПЕСНЯМ БУХАРСКОГО ДЕТСКОГО ФОЛЬКЛОРА НА УРОКАХ МУЗЫКИ // Вестник науки и образования.** 2020. №21-2 (99). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obespechenie-natsionalnogo-naslediya-v-obuchenii-pesnyam-buharskogo-detskogo-folklora-na-urokah-muzyki> (дата обращения: 26.10.2023).

Rajabov T. I., Ibodov O. R. O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 139-145.

Ибодов У. Р. ИНСТРУМЕНТАЛЬНАЯ МУЗЫКА КАК ОРУДИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ВЛИЯНИЯ НА ЧЕЛОВЕКА //Рекомендовано к печати Ученым советом Института психологии имени ГС Костюка НАН Украины (Протокол № 14 от 28 декабря 2020). – 2020. – С. 336.

Каюмов Ибрагим Файзуллаевич **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИСТОКИ МУЗЫКИ // Academy.** 2020. №11 (62). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskie-istoki-muzyki> (дата обращения: 26.10.2023).

Каюмов Иброхим Файзуллоевич, Жураева Мафтуна **МЕСТО МУЗЫКИ В ВОСПИТАНИИ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ 5-7 КЛАССОВ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ // Проблемы педагогики.** 2020. №3 (48). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mesto-muzyki-v-vospitanii-duhovno-nravstvennyh-kachestv-uchaschihsya-5-7-klassov-obscheobrazovatelnyh-shkol> (дата обращения: 26.10.2023).

Fayzullaevich Q. I. Culture and art values and aesthetics in formation factors. – 2021.

Kholmurodovna R. O., Esanova M. J. The Importance of Imagination and Perception in Traditional Singing Performance //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 73-74.

Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.

Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501..

Ramazanova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 336-339

Каримов О. И. Садриддин Айни-знаток и любитель народной музыки //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 13 (138). – С. 21-24.

Каримов О. И. Бўлажак мусиқа ўқитувчиларида маънавий-ахлоқий сифатларни шакллантириш //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 377-381.

Каримов О. И. Профессиональные музыкальные взгляды будущего учителя музыки //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-2 (100). – С. 17-20.

Boltayev B. H. BUXORO SHASHMAQOMI VA XORAZM MAQOM IJROCHILIGIDA MUSHKULOT (CHERTIM) VA NASR (AYTIM) YO'LLARI SEMANTIKASI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 776-782

Hamidovich B. B. Classification of the Bukhara Status (" Shashmakom") System //AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 109-111.

Болтаев Б. Х. Описание приёмы и методики представителей исторического генезиса и этапов узбекского музыкального обучения //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 806-813.

Azimovna S. M. et al. THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1067-1071.

Samiyeva M. A., Ramazonov A. V. O 'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI-O'QUVCHILAR QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH OMILI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 31-36.

Azimovna, Samiyeva Mehriniso. "THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS." *Academia Science Repository* 4.04 (2023): 1067-1071.

Samiyeva Mehriniso Azimovna, & G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich. (2023). THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS. Web of Scientist: Interneti

Мустафоев Б. И. ОСОБЕННОСТИ УРОКОВ МУЗЫКИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ //Достижения науки и образования. – 2019. – №. 1. – С. 46-48.onal Scientific Research Journal, 4(04), 1067–1071

Мустафаев.Б.. МУЗЫКАЛЬНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ АБДУРАУФА ФИТРАТА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023 - Т. 34. – №. 34

.journal.buxdu.uz https://buxdu.uz Page 1 Международный научный журнал № 2 (100), часть 2 «Научный импульс» сентябрь, 2022 361

Мустафаев Б. Restoration of the System of Music Education in Uzbekistan in 1920 1940 Years // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23.

Камолов Ш. Х. Приёмы и методы преподавания музыки в общеобразовательной школе // Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 602-607

Камолов Ш. Х., Бомуродов Ш. Ш. Педагогический характер студенческой молодежи и психологический подход // Academy. – 2021. – №. 3 (66). – С. 60-62.

Равшан Р. Р. ЗАМОНАВИЙ БАЙРАМЛАР РЕЖИССУРАСИДА ХАЛҚ ИЖОДИ НАМУНАЛАРИ ТАЪСИРЧАН ВОСИТА СИФАТИДА // TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 117-122.

Равшан Р. Р. ЗАМОНАВИЙ БАЙРАМЛАР РЕЖИССУРАСИДА ТАЪСИРЧАН ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ // TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 136-144.

Равшан Р. Р. ТЕАТР ТОМОШАЛАРИДА ТАЪСИРЧАН ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ // TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 145-151.

Urinov S. K., Nematullayeva S. CULTURAL CENTERS ARE A PLACE OF KNOWLEDGE AND ENLIGHTENMENT // Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 100-106.

Mo'Minmirzo Zokir O. G. L. et al. TEATR FAOLIYATIDA BOSHQARUV JARAYONLARINI TASHKIL ETISH USULLARI // Oriental Art and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 57-62.

Xolmo'minov M. Z. O. L. et al. MADANIYAT MARKAZLARIDA TO'GARAKLARNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI // Oriental Art and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 102-107.

Ravshanovich H. H. O'QUVCHI YOSHLARDA IJRO MALAKALARINI O'STIRISHDA FANLARARO ALOQADORLIK // "USA" INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE. – 2023. – Т. 8. – №. 1.

Ravshanovich H. H., Hakimovich X. J. ESTETIK TARBIYA BERISH JARAYONIDA O'ZBEK XALQINING MUSIQIY MEROSIDAN FAYDALANISH // World of Science. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 73-74.

Ravshanovich H. H. MUSIQA DARSLARINI O'QITISHDA FANLARARO ALOQADORLIKNING AHAMIYATI // JOURNAL OF INNOVATIONS IN

SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – T. 6. – №. 6. – C. 11-14.

Абдуллаев К. Ф., Умуррова М. Ё. ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УРОКА ПЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES. – 2023. – T. 4. – №. 2. – C. 66-69.

Umurova M. Y. Educational Significance of Children's Folklore Songs //AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 148-152.

Umurova M. Y. Formation of Patriotic Feeling in Youth Students through Folk Songs //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 99-103.

Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. Miasto Przyszłości, 33, 167-176.

Ражабов, Т. И. (2021). Ўкувчи-ёшларга ўзбек миллий мусиқа фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш. Science and Education, 2(11), 1094-1103.

Тўхтасин, Р. И. (2022). ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ ВА ИЖРОЛАРИ ҲАҚИДА. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), (Special issue), 64-71.

Rajabov, T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN, 2795(546X),

Ражабов, Т. (2023). O 'zbek bolalar musiqiy o 'yin folklorining mavzuviy tasnifi. Общество и инновации, 4(5/S), 340-345.

KO'rinoV S., Sadullayeva S. MUZEYSHUNOSLIK ISTIQBOLLARI //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2023. – T. 3. – №. 26. – C. 97-101.

Orinov, Sh K., and H. Abdusalomova. "TEATRLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI (2022): 766-770.

Orinov S. K. et al. UNDER THE ADMINISTRATION OF THE FIELD OF CULTURE AND ARTS FOREIGN MODELS (US EXAMPLE) //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2023. – T. 3. – №. 27. – C. 214-221.

O'rinoV S. K., Nematullayeva S. BADIY HAVASKORLIK TO'GARAKLARINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY METODLARI //Наука и технология в современном мире. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 58-61.